
SEKTOR RAHBARLARI BOZORDAGI NARX-NAVO BILAN TANISHDI



Bugun Qo'shtepa tumani hokimi, 1-sektor rahbari I.Novikov, tuman prokurori, 2-sektor rahbari F.Ismoilov hamda tuman IIB boshlig'i vazifasini bajaruvchi, 3-sektor rahbari Z.G'ofurovlar Qumtepa mahalla fuqarolar yig'ini hududida joylashgan "Dehqon bozori" MChJda bo'ldilar.



Sektor rahbarlari bozordagi va oziq-ovqat mahsulotlari do'konlaridagi narx-navo bilan tanishdilar. Shuningdek, sotuvchilar va xaridorlar bilan suhbatlashib, ularga yaratilgan sharoitlarni o'rganishdi.

Aholiga yetkazib berilayotgan oziq-ovqat mahsulotlari narx-navolarini asossiz oshirish holatlarini oldini olish yuzasidan mas'ul rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-04-21 21:41:16